

Iliq va sovuq ranglar. Kapalaklar chizamiz



Ranglar **iliq** va **sovuq** bo'ladi. Keling, buni birgalikda bilib olamiz.



Biz har bir rang ma'lum bir kayfiyatni yetkazishini ko'rishimiz mumkin.

Iliq ranglar bizga quyosh, olov, issiqlik, yoz va kuzni eslatuvchi ranglardir. Iliq ranglarga qizil, olovrang, sariq, pushti, sarg'ish-yashil kabi ranglar kiradi.

Sovuq ranglar bizga suv, muz, osmon, soya va qishni eslatuvchi ranglardir. Sovuq ranglarga ko'k, havorang, binafsharang, firuza, ko'kish-yashil kabi ranglar kiradi.



Qish – sovuq va sokin. **Kuz** – iliq va yorqin.



Tun – qorong'i va tinch. **Kun** – yorug' va quvnoq.



Bugun siz **ranglardan** foydalanib, rasmlar orqali **kayfiyatni** yetkazishni o'rganasiz.





Sizga kerak bo'ladi:

albom varaqlari, oddiy qalam,
o'chirg'ich, guash, mo'yqalamlar, suv.



Bo'yoqlarni rasm chizayotgan paytning o'zida aralashtirib ko'ring.



Rasm chizish bosqichlari:

1. Andazadan (81-betdagi **1-ilova**) foydalanib, kapalaklar rasmini chizing. Chiziq bo'ylab ularni o'rtasidan ikkiga bo'ling.
2. Birinchi kapalakning chap tomonida **kuz faslini** tasvirlang. Sariq, olovrang, qizil kabi iliq ranglardan foydalaning. Kichkina kuzgi bargchalar qo'shing.
3. O'ng tomonida esa **qishni** tasvirlang. Ko'k, havorang, binafsharang kabi sovuq ranglardan foydalaning. Qorparchalar qo'shing.
4. Ikkinchi kapalakning chap tomonida **tunni** tasvirlang. Sovuq ranglardan foydalaning. Yulduzlar va oyni qo'shing.
5. O'ng tomonida esa **kunni** tasvirlang. Sariq, olovrang, pushti kabi iliq ranglardan foydalaning.

Rasmga turli naqshlar: nuqtalar, chiziqlar, to'liqlar qo'shing. Yangi tuslar hosil qilish uchun ranglarni aralashtirib ko'ring.

Ranglar rassomga kayfiyatni so'zsiz yetkazib berishga yordam beradi.

